

5. Maki M.T., Berliana, Nurjaya D., Novian G. (2021). "Increasing Upper Body Strength of Wrestling Athletes through Bulgarian Bag Exercise". ACTIVE Journal of Physical Education, Sport, Health and Recreation, 10(2), 71–76.

6. Akaneeva E.A., Bezhentseva L.M., Lim M.S., Sosunovsky V.S. (2022). "Применение нестандартного спортивного оборудования на занятиях по физическому воспитанию с детьми дошкольного возраста" (дошкольники с нестандартным оборудованием). Теория и практика физической культуры, 2022, №10, p.83–85.

Uktamov Muhammadkarim Vahobjon o'g'li

Central Asian Medical University, Tibbiyotda xorijiy til fani o'qituvchisi

ORCID: [Orcid.Org/0009-0000-2681-1790](https://orcid.org/0009-0000-2681-1790)

uktamovmuhammadkarim@gmail.com



**INGLIZ MILLIY SPORT O'YINLARI: GOLF, FUTBOL, KRIKET VA
TENNIS TERMINLARINING KOMMUNIKATIV VAZIFASI**

<https://zenodo.org/records/18913350>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz milliy sport o'yinlari – golf, futbol, kriket va tennis terminlarining kommunikativ vazifasi lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sport terminlarining leksik-semantik xususiyatlari, ularning professional diskursdagi funksional yuklamasi hamda pragmatik ahamiyati o'rganiladi. Sport terminlari nafaqat nominativ birlik sifatida, balki axborot uzatish, identifikatsiya, baholash va ijtimoiy birlikni shakllantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Tahlil jarayonida terminlarning kontekstual qo'llanilishi, metaforik kengayishi va ommaviy kommunikatsiyadagi roli aniqlanadi. Natijada ingliz sport terminologiyasi milliy-madaniy kod va global kommunikativ vosita sifatida faoliyat yuritishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sport terminologiyasi; kommunikativ vazifa; ingliz milliy sport o'yinlari; diskurs; pragmatika; leksik-semantik tahlil; professional kommunikatsiya; sport lingvistikasi.

**COMMUNICATIVE FUNCTIONS OF TERMINOLOGY IN ENGLISH
NATIONAL SPORTS: GOLF, FOOTBALL, CRICKET AND TENNIS**

Abstract: This article analyzes the communicative functions of terminology used in English national sports games—golf, football, cricket, and tennis—from a linguistic perspective. The study examines the lexical-semantic features of sports terms, their functional load within professional discourse, and their pragmatic significance. Sports terminology is interpreted not only as a nominative linguistic unit but also as a means of information transmission, identification, evaluation, and the formation of social cohesion.

The analysis identifies the contextual usage of terms, their metaphorical expansion, and their role in mass communication. As a result, English sports terminology is substantiated as functioning both as a national-cultural code and as a global communicative instrument.

Keywords: sports terminology; communicative function; English national sports games; discourse; pragmatics; lexical-semantic analysis; professional communication; sports linguistics

«КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ ТЕРМИНОВ АНГЛИЙСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ВИДОВ СПОРТА: ГОЛЬФ, ФУТБОЛ, КРИКЕТ И ТЕННИС»

Аннотация: В данной статье с лингвистической точки зрения анализируются коммуникативные функции терминов английских национальных видов спорта — гольфа, футбола, крикета и тенниса. В исследовании рассматриваются лексико-семантические особенности спортивных терминов, их функциональная нагрузка в профессиональном дискурсе, а также их прагматическая значимость. Спортивная терминология интерпретируется не только как номинативная языковая единица, но и как средство передачи информации, идентификации, оценки и формирования социальной общности. В процессе анализа выявляются контекстуальное употребление терминов, их метафорическое расширение и роль в массовой коммуникации. В результате обосновывается, что английская спортивная терминология функционирует как национально-культурный код и как глобальный коммуникативный инструмент.

Ключевые слова: спортивная терминология; коммуникативная функция; английские национальные виды спорта; дискурс; прагматика; лексико-семантический анализ; профессиональная коммуникация; лингвистика спорта.

Kirish.

Sport zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy-madaniy fenomeni sifatida nafaqat jismoniy faoliyat, balki kommunikativ tizim hamdir. Har bir milliy sport turi o'ziga xos terminologik tizimni shakllantiradi. Ingliz milliy sport o'yinlari – golf, futbol, kriket va tennis – tarixan shakllangan, boy terminologik qatlamga ega bo'lib, ular bugungi kunda global kommunikatsiya vositasiga aylangan. Sport terminlari o'z mohiyatiga ko'ra maxsus leksik birliklar bo'lib, muayyan soha doirasida aniqlik, tezkorlik va bixillikni ta'minlaydi. Shu bois mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – ingliz milliy sport o'yinlari terminlarining kommunikativ vazifasini aniqlash va ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Sport diskursi va sport terminologiyasi zamonaviy tilshunoslikda alohida yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, u terminologiya nazariyasi, pragmatika, kognitiv lingvistika hamda sotsiolingvistika kesishgan nuqtada tadqiq etiladi. Terminologiya masalalariga doir yondashuvlarda terminlar muayyan soha tushunchalarini ixcham va aniq ifodalovchi, bir ma'nolilikka intiluvchi, professional kommunikatsiyada standartlashuvni ta'minlovchi birliklar sifatida izohlanadi. Shu ma'noda sport terminlari ham "maxsus leksik tizim"ning komponenti bo'lib, o'yin jarayoni, qoidalar va vaziyatlarni kodlash orqali professional diskursning barqarorligini saqlaydi. Diskurs tahlili doirasida sport kommunikatsiyasi sharhlovchi nutqi, ommaviy axborot vositalari, muxlislar muloqoti va rasmiy reglamentlar (qoidalar) kabi turli janrlar kesimida o'rganiladi. Bu yo'nalishda terminlar

nafaqat nominativ vosita, balki kontekstga bog'liq tarzda baholovchi va ekspressiv yuklama kasb etuvchi birliklar sifatida ham talqin qilinadi. Ayniqsa, sport sharhida terminlar intonatsion kuchayish, takror, emotsional komponentlar bilan qo'llanib, auditoriyada ta'sirchanlikni oshirishi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi.

Kognitiv lingvistika yondashuvida sport terminlari konseptual ramkalar (frames) va metaforik modellar orqali tushuntiriladi. Masalan, futbol terminlarining ("goal") umumtilga ko'chib, "maqsad" konsepti bilan metaforik integratsiyalashuvi, tennis terminlarining ("ace", "break point") turli diskurslarda ramziy ma'no kasb etishi yoki golf terminlarining ("birdie", "eagle") zoologik metaforalar orqali natijani baholashi terminlarning konseptual asosga egaligini ko'rsatadi. Bu holat sport terminologiyasining faqat texnik leksika emas, balki tafakkur va madaniyat bilan bog'liq semantik tizim ekanini asoslaydi.

Natija va muhokama.

Ingliz milliy sport o'yinlari – futbol, golf, kriket va tennis terminologiyasi ko'p funksiyali kommunikativ tizim ekanligini ilmiy asosda tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sport terminlari nominativ va informativ vazifalardan tashqari baholovchi, ekspressiv, indeksikal hamda pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Futbol terminlari ommaviy diskursda tezkor axborot uzatish vositasi sifatida universallashtirilgan bo'lsa, golf terminologiyasi elitar ijtimoiy identitet bilan bog'langan. Kriket terminlari ingliz tarixiy-madaniy qatlamining lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi, tennis terminlari esa global semantik kengayish orqali umumtil qatlamiga integratsiyalashgan. Sport terminologiyasining kognitiv model, konseptual metafora va diskursiv iqtisod tamoyillariga asoslanishini ko'rsatdi. Sport terminlari minimal lingvistik shaklda maksimal semantik yukni tashuvchi kodlash vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, ular milliy identitet, ijtimoiy maqom va professional mansublikni bildiruvchi indeksikallik xususiyatiga ega.

Futbol ingliz milliy sportining tarixiy va madaniy ildizlarga ega bo'lgan eng ommaviy turi sifatida nafaqat jismoniy faoliyat shakli, balki murakkab kommunikativ tizim hamdir. Mazkur sport turi doirasida shakllangan terminologik qatlam bugungi kunda ingliz tilining global kommunikativ maydonidagi eng faol va keng tarqalgan leksik tizimlardan biriga aylangan. Kommunikativ nuqtai nazardan futbol terminlari bir nechta asosiy funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular nominativ funksiyani amalga oshiradi, ya'ni muayyan sport hodisasini aniq va ixcham nomlaydi. Ikkinchidan, informativ funksiya orqali o'yin jarayonidagi vaziyatni auditoriyaga tezkor yetkazadi. Sharhlovchi nutqida "It's a penalty!" kabi konstruktsiyalar minimal lingvistik birlik orqali maksimal axborot uzatadi. Bu jarayonda kontekstual bilimlar auditoriya tomonidan avtomatik ravishda faollashtiriladi. Uchinchidan, futbol terminlari baholovchi funksiyani ham bajaradi. Masalan, "brilliant goal", "controversial decision", "clear offside" kabi birikmalarda termin baholovchi sifat bilan birga qo'llanib, o'yinning sifat jihatini aks ettiradi. Bu holat sport diskursining subyektiv-emotsional xususiyatini ko'rsatadi. Termin va baholovchi komponentning birikishi kommunikativ ta'sirchanlikni oshiradi. To'rtinchidan, ekspressiv funksiya futbol diskursining ajralmas qismidir. Stadiondagi muxlislar nutqida yoki teletranslyatsiyadagi sharhlovchi nutqida terminlar yuqori intonatsiya va takrorlash orqali kuchli emotsional effekt yaratadi. Masalan, "Goal! Goal! Goal!" takrori informativ vazifadan tashqari kollektiv emotsional birlikni shakllantiradi. Bu jarayon sotsiolingvistik jihatdan sport terminologiyasining ijtimoiy integratsiya vositasi ekanligini ko'rsatadi. Futbol terminologiyasi global miqyosda internatsional leksik qatlamni shakllantirgan. "Goal", "penalty", "offside" kabi birliklar ko'plab tillarga o'zlashgan yoki kalkalangan shaklda kirib borgan. Bu hodisa lingvistik globalizatsiyaning sport diskursidagi ko'rinishidir. Terminlarning xalqaro miqyosda bir xilda qo'llanishi kommunikativ universallikni ta'minlaydi va sportni transmilliy kommunikativ platformaga aylantiradi. Shuningdek, futbol terminlari metaforik kengayish orqali umumiy nutq qatlamiga o'tadi. Masalan, "to score a goal in negotiations" yoki "to be offside in politics" kabi

iboralar terminlarning semantik kengayishini namoyon etadi. Bu jarayon terminlarning kognitiv modellari umumtil konseptual tizimiga integratsiyalashganini ko'rsatadi. Futbol terminologiyasi murakkab va ko'p funksiyali kommunikativ tizim bo'lib, u nominativ, informativ, baholovchi va ekspressiv vazifalarni birgalikda bajaradi. Ushbu terminlar sport diskursining tezkorligi, aniqligi va ta'sirchanligini ta'minlaydi hamda ingliz tilining global kommunikativ resurslaridan biri sifatida faoliyat yuritadi. Lingvistik nuqtai nazardan futbol terminologiyasi nafaqat maxsus soha leksikasi, balki zamonaviy kommunikativ madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishi mumkin.

Golf terminologiyasi ingliz sport leksikasining eng ixtisoslashgan qatlamlaridan biri bo'lib, u o'zining semantik murakkabligi, tarixiy shakllanishi va pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. "Birdie", "eagle", "bogey", "handicap" kabi birliklar dastlab tor professional muhitda shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda ular global sport diskursining tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu terminlar faqat o'yindagi texnik natijani bildiruvchi nominativ birliklar emas, balki o'yinchining mahorat darajasi, strategik imkoniyatlari va ijtimoiy maqomini ham ifodalovchi kommunikativ vositalardir. Semantik nuqtai nazardan golf terminlari metaforik asosga ega bo'lishi bilan e'tiborni tortadi. Masalan, "birdie" termini o'yinchining par'dan bir zarba kam natija ko'rsatganini anglatadi. Ushbu birlikning kelib chiqishi ingliz tilidagi "bird" so'zining 19–20-asrlarda "ajoyib, zo'r" ma'nosida ishlatilgan sleng shakliga borib taqaladi. Demak, terminning shakllanishida baholovchi-emotsional komponent mavjud bo'lib, u sport natijasini ijobiy baholashni anglatadi. "Eagle" esa undan ham yuqori natijani bildiradi va metaforik ravishda kuch, yuksaklik va ustunlik ramzi sifatida qo'llanadi. Bu yerda zoologik metafora o'yin natijasining darajasini kuchli obraz orqali ifodalashga xizmat qiladi. "Bogey" termini esa aksincha, me'yoriy ko'rsatkichdan bir zarba ko'p natijani bildiradi. Ushbu birlikning etimologiyasi folklor va og'zaki nutq an'alariga borib taqaladi. Bu terminning qo'llanilishi natijani baholash bilan birga, o'yinchining vaziyatini ham ko'rsatadi. Lingvistik jihatdan qaralganda, golf terminlari natijaviy ko'rsatkichni oddiy son bilan emas, balki ramziy nom orqali ifodalaydi. Bu esa terminologik tizimning semantik boyligini va ixtisoslashganligini ko'rsatadi. "Handicap" termini esa golf diskursining pragmatik va sotsiolingvistik xususiyatlarini ochib beradi. Mazkur birlik o'yinchilar o'rtasidagi mahorat farqini muvozanatlash maqsadida qo'llanadigan tizimni anglatadi. Kommunikativ jihatdan "handicap" o'yinchining professional darajasi haqida axborot beradi. Bu termin ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida ham xizmat qiladi, chunki u o'yinchining reytingini va sportdagi maqomini belgilaydi. Shuningdek, "low handicap player" yoki "high handicap golfer" kabi birikmalar baholovchi va ierarxik ma'no kasb etadi. Golf terminologiyasi yuqori darajada kodlangan tizim bo'lib, u tor professional hamjamiyat ichida tezkor va aniq kommunikatsiyani ta'minlaydi. Bunda minimal lingvistik birlik maksimal axborotni uzatadi. Masalan, "He scored an eagle on the 5th hole" jumlasini o'yinning butun bir epizodini qisqa va aniq tarzda ifodalaydi. Bu jarayonda auditoriya terminning semantik maydonini oldindan bilgan holda, qo'shimcha izohsiz vaziyatni angalaydi. Shu sababli golf terminologiyasi yuqori darajadagi kommunikativ iqtisod (economy of language) prinsipiga asoslanadi. Sotsiolingvistik nuqtai nazardan golf terminlari elitar diskurs bilan chambarchas bog'liq. Tarixan golf aristokratik va yuqori ijtimoiy qatlam vakillari bilan bog'liq bo'lgan sport turi sifatida shakllangan. Shuning uchun uning terminologiyasi ham muayyan ijtimoiy identitetni ifodalovchi belgiga aylangan. etadi.

Kriket terminologiyasi ingliz sport diskursining eng murakkab va tarixiy jihatdan chuqur qatlamlaridan birini tashkil etadi. "Wicket", "batsman", "over", "run out" kabi birliklar o'yinning ko'p bosqichli, qat'iy reglamentlashgan tizimini qisqa lingvistik kodlar orqali ifodalovchi maxsus terminlardir. Kriket o'yini strukturaviy jihatdan murakkab bo'lib, unda vaqt, fazo, navbat va taktika tushunchalari o'zaro uyg'unlashadi. Shu sababli uning terminologiyasi ham yuqori darajada kodlangan va ixcham kommunikativ vosita sifatida shakllangan. Lingvistik nuqtai

nazardan kriket terminlari nominativ va strukturaviy kodlash funksiyasini bajaradi. Masalan, “wicket” termini ko‘p ma‘noli terminologik birlik hisoblanadi. U bir tomondan, maydondagi ustunlar majmuasini anglatadi, ikkinchi tomondan, o‘yinchining chiqib ketishi (dismissal) holatini ham bildiradi. Bu terminning semantik kengligi sport terminologiyasida polisemiya hodisasining mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq bu polisemiya kontekst doirasida aniqlikni buzmaydi, aksincha, diskursiv iqtisodiylikni ta‘minlaydi. Sharhlovchi nutqida “He lost his wicket” jumlasida o‘yin jarayonidagi muhim burilish nuqtasini qisqa va aniq ifodalaydi. “Batsman” termini esa o‘yindagi asosiy rolni bajaruvchi o‘yinchini nomlaydi. Bu birlik nominativ funktsiya bilan birga ierarxik va funksional ma‘no yukiga ega. Kriket tizimida har bir o‘yinchi pozitsiyasi qat‘iy belgilangan bo‘lib, terminlar orqali bu strukturaviy farqlar aniq ko‘rsatiladi. Zamonaviy diskursda gender tengligi nuqtai nazaridan “batsman” o‘rniga “batter” birligining qo‘llanilishi ham terminologiyaning ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Bu jarayon terminlarning faqat lingvistik emas, balki sotsiomadaniy tizim bilan ham uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. “Over” termini kriket o‘yining vaqt va navbatga asoslangan tizimini ifodalovchi asosiy birliklardan biridir. Bir “over” olti to‘p tashlash jarayonini bildiradi. Bu termin o‘yin strukturasi ichidagi vaqt segmentatsiyasini kodlaydi. Kognitiv jihatdan qaralganda, “over” konsepti takrorlanish va sikliklik modeliga asoslanadi. O‘yinning umumiy davomiyligi aynan shu kichik birliklar yig‘indisi orqali shakllanadi. Demak, termin o‘yin dinamikasini tartibga soluvchi strukturaviy mexanizm vazifasini bajaradi. “Run out” esa o‘yinchining maydondan chiqib ketishining maxsus turini bildiradi. Ushbu termin ikki komponentli frazeologik birlik sifatida semantik jihatdan murakkab hodisani ifodalaydi. “Run” harakatni, “out” esa o‘yindan chiqish holatini anglatadi. Ularning birikishi natijasida muayyan qoidaviy vaziyat qisqa kod orqali ifodalanadi. Diskurs tahlili shuni ko‘rsatadiki, “run out” termini sharhlovchi nutqida dramatik effekt bilan qo‘llaniladi va auditoriyada kuchli emotsional reaksiya uyg‘otadi. Bu esa terminning ekspressiv va pragmatik funksiyasini namoyon etadi

Tennis terminologiyasi ingliz sport leksikasining eng universallashtirilgan va global miqyosda tarqalgan qatlamlaridan biri hisoblanadi. “Ace”, “break point”, “love”, “deuce” kabi birliklar professional sport kommunikatsiyasining ajralmas elementiga aylangan bo‘lib, ular minimal lingvistik shaklda maksimal semantik va pragmatik ma‘lumotni ifodalaydi. Tennisning xalqaro turnirlar orqali global ommalashuvi ushbu terminlarning ham transmilliy kommunikativ birlik sifatida shakllanishiga olib kelgan. Semantik nuqtai nazardan “ace” termini to‘pni raqib tomonidan qaytarib bo‘lmaydigan tarzda amalga oshirilgan servisni anglatadi. Bu birlik nominativ vazifa bilan bir qatorda baholovchi va ekspressiv yuklamaga ham ega. “Ace” ingliz tilida umumiy leksik qatlamda ham “eng yaxshi”, “ustun”, “mahoratli shaxs” ma‘nolarida qo‘llaniladi (“an ace player”, “an ace pilot”). Demak, sport terminining metaforik kengayishi umumtil semantik maydoniga integratsiyalashgan. Bu jarayon terminlarning konseptual metafora asosida kengayishini ko‘rsatadi. “Break point” esa o‘yinning hal qiluvchi bosqichini bildiruvchi murakkab terminologik birlikdir. U ikki komponentdan iborat bo‘lib, “break” (uzilish, ustunlikni qo‘lga kiritish) va “point” (ochko) semantik birliklarining birikishidan tashkil topgan. Bu termin o‘yin dinamikasidagi burilish nuqtasini anglatadi. Pragmatik jihatdan “break point” sharhlovchi nutqida keskinlik va dramatik effekt hosil qiladi. Auditoriya uchun bu birlik o‘yinning strategik muhim lahzasini bildiradi. Shunday qilib, termin nafaqat informativ, balki anticipativ (kutilish hissini uyg‘otuvchi) funktsiyani ham bajaradi. “Love” terminining nol ochkoni anglatishi tennis terminologiyasining semantik o‘ziga xoslik namunalariidan biridir. Etimologik jihatdan bu birlik fransuz tilidagi “l’oeuf” (tuxum) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tuxum shaklining nolga o‘xshashligi asosida metaforik ko‘chish yuz bergan degan nazariya mavjud. Biroq ingliz tilida “love” so‘zining “muhabbat” ma‘nosi bilan fonetik o‘xshashligi semantik paradoks hosil qiladi. Kognitiv jihatdan qaralganda, bu termin sport diskursida konvensional ma‘no kasb etgan va umumtil ma‘nosi bilan

aloqasi uzilgan. Bu hodisa terminologik semantikaning ixtisoslashuvi va kontekstual barqarorligini ko'rsatadi. "Deuce" termini esa teng ochko holatini (40–40) bildiradi va o'yinning eng keskin pallalaridan birini ifodalaydi. Ushbu birlikning kelib chiqishi fransuz tilidagi "deux" (ikki) so'ziga borib taqaladi. Semantik jihatdan "deuce" takrorlanish va muvozanat konseptiga asoslanadi. Diskursiv jihatdan bu termin o'yin jarayonidagi tenglik va noaniqlikni bildiradi, bu esa auditoriyada dramatik kutish holatini yuzaga keltiradi. Tennis terminologiyasining muhim jihati uning global sport kommunikatsiyasida universallik kasb etganidadir. Futbol yoki kriket terminlaridan farqli ravishda, tennis terminlari ko'pincha o'zining asl ingliz yoki fransuz shaklida boshqa tillarga o'zlashgan. Bu esa sport diskursida lingvistik standartlashuv jarayonining namunasidir. "Ace", "deuce", "break" kabi birliklar xalqaro turnirlar, teletranslyatsiyalar va ommaviy axborot vositalari orqali umumiy kommunikativ kodga aylangan. Shu bilan birga, terminlar millatlararo kommunikativ vosita sifatida sportni umumiy madaniy platformaga aylantiradi. Tennis terminologiyasi semantik o'ziga xoslik, metaforik kengayish va global universallik xususiyatlariga ega murakkab kommunikativ tizimdir. "Ace", "break point", "love", "deuce" kabi birliklar nominativ va informativ vazifalardan tashqari, baholovchi, ekspressiv va pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Ular sport diskursining tezkorligi va aniqligini ta'minlash bilan birga, umumtil semantik maydoniga integratsiyalashib, keng kommunikativ resursga aylangan.

Xulosa.

Ingliz milliy sport o'yinlari – futbol, golf, kriket va tennis terminologiyasi ko'p funksiyali kommunikativ tizim ekanligini ilmiy asosda tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sport terminlari nominativ va informativ vazifalardan tashqari baholovchi, ekspressiv, indeksikal hamda pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Futbol terminlari ommaviy diskursda tezkor axborot uzatish vositasi sifatida universallashtirgan bo'lsa, golf terminologiyasi elitar ijtimoiy identitet bilan bog'langan. Kriket terminlari ingliz tarixiy-madaniy qatlamining lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi, tennis terminlari esa global semantik kengayish orqali umumtil qatlamiga integratsiyalashgan. Sport terminologiyasining kognitiv model, konseptual metafora va diskursiv iqtisod tamoyillariga asoslanishini ko'rsatdi. Sport terminlari minimal lingvistik shaklda maksimal semantik yukni tashuvchi kodlash vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, ular milliy identitet, ijtimoiy maqom va professional mansublikni bildiruvchi indeksikallik xususiyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Allan, K. Linguistic meaning. Routledge, 2014.
2. Androutsopoulos, J. Language and society in sport discourse. Journal of Sociolinguistics, 2012, 16(3), 345–367.
3. Beard, A. The language of sport. Routledge, 1998.
4. Biber, D., Conrad, S., Reppen, R. Corpus linguistics. Cambridge University Press, 1998.
5. Chovanec, J. Language and sport: Discourse and practice. Bloomsbury, 2018.
6. Crystal, D. The Cambridge encyclopedia of the English language. Cambridge University Press, 2003.
7. FIFA. Football glossary and terminology guide. FIFA Publications, 2023.
8. Fillmore, C. Frame semantics. In: Linguistics in the morning calm. Hanshin, 1982, pp. 111–137.